



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'QUVCHILARGA QO'SHIB, AJRATIB, CHIZIQCHA BILAN YOZISH QOIDALARINI SAMARALI O'RGATISH USULLARI

Eshqulov S. A.

Annotatsiya:

Hozirgi kunda ona tili darslarida o'quvchilarga imlo qoidalarini tog'ri va samarali o'rgatish juda muhim sanaladi. Buni amalga oshirish jarayonida turli zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish dars sifatini yanada oshiradi. Shuningdek, o'quvchilarda to'gri yozish ko'nikmalarini yaxshi shakllanishida katta yordam beradi.

Kalit so'zlar: Orfografiya, orfoepiya, olinma so'zlar, interaktiv metodlar, qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish tamoyillari

Hozirda hayotimizni yozuvlari tasavvur qilib bo'lmaydi. Hayotimizning har jabhasida yozuvdan foydalanamiz. Lekin ko'ngilni xira qiluvchi shunday holatlar borki, ko'pincha imloviy xato yozilgan so'zlarga ko'zimiz tushadi. Bu kishilarning imloviy savodxonlik darajasi pastligidan, imlo qoidalarini yaxshi bilmasligidan yoki yozuvimizga nisbatan befarqligidan dalolat beradi. To'g'ri, ravon, chiroyli yozish insonning nutq madaniyati yuqoriligidan nishonadir. Shu boisdan yoshlarga maktab chog'idanoq to'g'ri va xatosiz yozishni o'rgatishimiz, imlo qoidalari bilan batafsil tanishtirib borishimiz zarur. Shunda kelgusida jamiyatimizda bunday xatoliklarni ko'rmasligimiz mumkin.

Bilamizki, so'zlar qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozilishi mumkin. Bu uch xil holatning har birini o'z ishlatalish qonuniyati bor. Afsuski, ko'cha-ko'yillarda, turli reklama bannerlarida qo'shib yoziladigan so'zlarni ajratib yozib qo'yilganligini, aksincha, ajratib yoziladigan so'zlarni qo'shib yozib qo'yilganligini ko'rib insonning dili xira bo'ladi. Chunki yuqorida aytganimizdek imloviy xato yozish bu o'z tilimizga nisbatan humatsizlik sanaladi. Shuni oldini olish uchun esa o'quvchi yoshlarga bolalikdan ona tili darslarda imloviy savodxonlikni o'rgatib borish zarur. Xususan, qo'shib yozish ko'nikmalarini haqida fikr yuritaigan bo'lsak, bunday yoziladigan so'zlarning bir necha qonun-qoidalari bor. Masalan, xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar bilan yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi. Misollar: devsifat,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

suvtalab, bug'doyrang, bedapoya, umumxalq, qabulxona, tabriknoma, taklifnomalar, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab va boshqalar. [1] Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, qo'shma otlar qo'shib yoki ajratib yozilishi mumkin. Qo'shma otlar ajratib yozilishi uchun qo'shma otning ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lish kerak. Masalan, Katta Farg'ona, O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq va boshqalar. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar ham qo'shib yoziladi: pirpirak (pirpir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gjigijla (gij-gij+la) kabi. Shuningdek, rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika; teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi. -(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi:

orinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, qo'ziqorin, otquloi, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyo'z kabi. [2]

Yuqoridagi imlo qoidalaridan ko'rinish turibdiki, qo'shib yozishning bir necha holatlari bor. O'quvchilarga bu ko'nikmalarni o'rgatish uchun esa o'qituvchi bir necha usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, o'ziga yoqqan metod orqali o'tgan mavzularni takrorlashi mumkin. Yoki o'qituvchi gugurt metodi orqali o'quvchilardan yozilishi nisbatan murakkab so'zlarni takrorlab chiqishi mumkin. Eng samarali yo'llardan biri esa o'quvchilarga ma'lum bir mavzuga oid matn berib, undagi imloviy xatoliklarni topish yoki matndagi so'zlarda yozilishini imlo qoidalariga oid sharhlashni so'rashi mumkin. Shu boidan yuqoridagi qoidalar asosida mashqlar tahlili bilan tanishib chiqamiz.

Mashq. Gaplarni o'qing, qo'shib yozilyotgan so'zlarni toping va nima uchun qo'shib yozilyotganligi sababini aniqlang.

Guzar olato'polon bo'ladi. Guzar olatasir bo'ladi. El oqkaltak-qorakaltak bo'ladi. Farg'onani oqpodsho bosadi. Oqpodsho shahar oralaydi. (T. Murod) Ikki kun burun Qumariqqa ketgan edi. (A. Cho'lpon) Poytaxt atrofidagi ko'plab so'lim manzillarga boradigan avtobuslar shu yerdan jo'naydi: Parkent, So'qoq, Kumushkon, Oqtosh, Chimyon, G'azalkent, Sijjak. (E. A'zamov) Mahallamizda ikkita masjid, bitta choyxona, ikkita baqqollik bor. Masjidning bittasi — Tikanlimozorda, ikkinchisi —



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yetimmasjid Qo‘rg‘ontagida. (G‘. G‘ulom) Oybuloq — yurt. Yurtni tashlab ketib bo‘lmaydi. (Sh.

Bo‘tayev) Millatlararo munosabatlar masalasi murakkab va hal qilinishi dolzarb muammolardan biridir. [3]

Yuqoridagi mashqni tahlil qiladigan bo‘lsak, dastlab gaplardagi qo‘sib yozilgan so‘zlarni topib olishimiz kerak. Masalan, dastlabki gaplarda olato’palon, oqlaktak, qorakaltak, oqpodsho so‘zлari qo‘sib yozilgan, bu so‘zlearning qo‘sib yozilishiga sabab ikkinchi qismi turdosh ot bo‘lgan qo‘shma ot bo‘lganligi uchun qo‘sib yozilgan. Keyingi gaplarni ham xuddi shunday tahlil qilish kerak.

Mashq. Quyidagi so‘zlardan nechtasi qo‘sib yoziladi.

Ko‘z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so‘z, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, g‘ayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qo‘rg‘on, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov.

Bu mashqda ham har bir so‘zni imlo qoidasiga asosan tahlil qilish kerak va qo‘sib yoziladigan so‘zlarni topib chiqish zarur. Bu mashq orqali o‘quvchi xotirasida qo‘sib yoki ajratib yoziladigan so‘zlar yaxshi esda qoladi. Masalan, ko‘zoynak so‘zi qo‘sib yoziladi, chunki turdosh ot, sotib olmoq so‘zi esa ajratib yoziladi, negaki qo‘shma fe‘l, ular doim gapda ajratib yozilishi kerak.

O‘quvchilarda imloviy savodxonlikni oshirish uchun turli musobaqa o‘yinlarni ham amalga oshirish mumkin. Masalan, „Bu so‘z bizniki“ bellashuvini o‘tkazsa bo‘ladi. Bu musobaqada o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh noto‘g‘ri qo‘sib yozilgan so‘zlarni, ikkinchi guruh esa noto‘g‘ri ajratib yozilgan so‘zlarni aniqlab chiqadi. Shu orqali ikkala guruh o‘quvchilari mavzuga oid bilimlarini mustahkamlab oladi. Shu kabi musobaqalarni o‘tkazish o‘quvchilarda bilimini o‘stirishdan tashqari, ularda zirakli, hozirjavoblik, topqirlilik kabi ijobiy fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga testlar berish orqali ham olgan bilimlarini mustahkamlashimiz mumkin. [4]

O‘quvchilarga imlo qoidalari to‘liq o‘rgatganimizdan so‘ng, ular o‘rgangan bilimlarni doim takrorlab turishimiz kerak. Chunki takrorlanmasa, ma’lum vaqtidan so‘ng o‘rgangan qoidalari ham eslaridan chiqib ketishi mumkin. Imloviy savodxonlikka oid bilimlarni o‘rganish va takrorlashda turli mashq va testlar samarali yordam beradi. Shuningdek, bu mashqlarni faqat imlo qoidalari mavzusida emas, boshqa mavzular davomida berib borish kerak. Har chorakdan keyin imlo



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qoidalariga oid testlar berib o'quvchilar bilimini takrorlab turish zarur. Imlo qoidalariga oid mashqlar bajarish o'quvchilarda imloviy savodxonlik darajasi o'stirish bilan birgalikda, ularda matn bilan ishlash ko'nikmalarini ham yaxshi shakllantiradi. Turli darajadagi testlar bilan ishlash esa o'quvchilarda sinchikovlikni, mantiqiyl fikrlashni ham yaxshi o'stiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Odilov.Y., Ziydullayeva.G Ona tili.11-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Madvaliyev, E.Begmatov "O'zbek tilining imlo lug'ati" – T.: Akademnashr, 2013.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2019.
4. A. Nurmonov., A. Sobirov., N. Qosimova Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. – T.:Ilm Ziyo, 2010.